Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317931

- **Kadrlar tayyorlash:** IFRS va raqamli texnologiyalar asosida o‘quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.
- **Qonunchilikni takomillashtirish:** Mahalliy qonunlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish.
- **Texnologik modernizatsiya:** Kompaniyalar uchun axborot tizimlarini joriy etishga subsidiya va imtiyozlar ajratish.
- **Audit standartlarini uyg‘unlashtirish:** Xalqaro audit amaliyotini joriy etish orqali ishonchlilikni oshirish.

Adabiyotlar

1. Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, H. I. (2023). Raqamlashtirish sharoitida korxona strategiyasi. *Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarining muammolari va yechimlari* (pp. 317-322). Коканд: Вестник Кокандского университета.
2. Isroilov, A., & Karimov, S. Innovatsion texnologiyalarni moliya va buxgalteriya tizimlarida qo‘llash. (2021). Tashkent State University Press.
3. Корол, В. Облачные технологии в финансовом учете: преимущества и вызовы. Европейский журнал цифровых финансов, (2023). 22(2), 78-88
4. Абдурахманова, Ш. А. (2018). Об одном аспекте развития интеллектуальных умений в цифровом обществе. In Актуальные проблемы профессионального педагогического и психологического образования (pp. 12-14).
5. Shamsiddinov G’iyosjon and Raxmatova Gulandom "Moliyaviy texnologiyalar(fintech) va bank xizmatlarining raqamlashtirilishi " Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения 3.11 (2024): 33-37.
6. Бозорова, Ирина Жуманазаровна. "Информационно-коммуникационные технологии как фактор совершенствования экономики в условиях информационного общества." Indexing 1.1 (2024)

TIJORAT BANKLARDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BILAN BOG‘LIQ OPERATSIYALARI VA ULARNING BANK FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIU AF, “Mutaxassislik, ijtimoiy - gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi dotsenti,
e-mail: valijon60@bk.ru Tel:+998932785860
Aminova Farangiz Rustamovna

Published: 24.05.2025

Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Aminova Farangiz Rustamovna (2025). Tijorat banklarda qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatida tutgan o‘rni. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317931

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

TDIU AF, “Bank ishi va audit” yo’nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatidagi o‘rni tahlil qilingan. Qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari banklar uchun likvidlikni boshqarish, daromad olish va risklarni diversifikatsiya qilish kabi strategik ahamiyatga ega. Maqolada tijorat banklar tomonidan amalga oshiriladigan investitsion va xizmat ko‘rsatish operatsiyalari, shuningdek, ularning iqtisodiyotga ta’siri keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari qimmatli qog‘ozlar bozoridagi bank ishtirokining moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashdagi muhim rolini ochib beradi. Ushbu maqolada tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari va ularning bank faoliyatidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, qimmatli qog‘ozlar, investitsiya operatsiyalari, risklarni boshqarish, likvidlik, daromad manbalari, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy bozor.

Аннотация: В данной статье рассматриваются operatsii коммерческих банков, связанные с ценными бумагами, и их роль в деятельности банков. Operatsii с ценными бумагами имеют стратегическое значение для управления ликвидностью, получения доходов и диверсификatsii рисков. В статье анализируются инвестиционные и сервисные operatsii, осуществляемые коммерческими банками, а также их влияние на экономику. Результаты исследования подчеркивают важность участия банков на рынке ценных бумаг в обеспечении финансовой стабильности и экономического развития.

Ключевые слова: Коммерческие банки, ценные бумаги, инвестиционные operatsii, управление рисками, ликвидность, источники доходов, экономическая стабильность, финансовый рынок.

Annotation: This article examines the operations of commercial banks related to securities and their role in banking activities. Securities operations are strategically important for managing liquidity, generating income, and diversifying risks. The article analyzes the investment and service-related operations performed by commercial banks, as well as their impact on the economy. The findings highlight the significance of banks' participation in the securities market in ensuring financial stability and fostering economic development.

Keywords: Commercial banks, securities, investment operations, risk management, liquidity, income sources, economic stability, financial market.

Tijorat banklari iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, ularning asosiy vazifasi moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishdir. Ular orqali iqtisodiy sub’ektlar o‘z moliyaviy ehtiyojlarini qondirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu sababli, tijorat banklari har bir davlat iqtisodiy tizimining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.Tijorat banklari – bu jismoniy va yuridik shaxslarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi hamda bozor iqtisodiyotida muhim o‘rin tutuvchi kredit-moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Ular mijozlarning mablag‘larini jalb qilish, kredit berish, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa bank xizmatlarini ko‘rsatish orqali iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Tijorat banklarining asosiy funksiyalari quyidagilar:

✓ Depozitlarni qabul qilish: Banklar jismoniy va yuridik shaxslarning mablag‘larini omonat sifatida qabul qiladi va ularga foiz to‘laydi.

- Kreditlash: Banklar iqtisodiyotning turli sohalarini, jumladan, korxonalarni va aholining ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun kreditlar ajratadi.
- Hisob-kitob xizmatlari: Banklar mijozlar o‘rtasidagi pul o‘tkazmalarini amalga oshiradi va to‘lov tizimini boshqaradi.
- Investitsiyalarni amalga oshirish: Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar, loyihalar va boshqa moliyaviy instrumentlarga investitsiya qiladi.
- Valyuta operatsiyalari: Banklar xalqaro savdo va valyuta bozori bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatadi[1].

Tijorat banklarining ahamiyati quyidagilardan iborat:

5. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish: Tijorat banklari korxonalarni moliyalashtirish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

6. Moliya tizimining barqarorligini ta’minlash: Banklar omonatlarni jalb qilish va ularni samarali joylashtirish orqali bozor likvidligini oshiradi.

7. Jamg‘armalarni investitsiyaga aylantirish: Tijorat banklari aholi va korxonalar mablag‘larini to‘plab, investitsiya loyihalariga yo‘naltiradi[2].

Qimmatli qog‘ozlar bozori zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tijorat banklarining ushbu bozordagi faoliyati bankning umumiy strategiyasini shakllantirishda, risklarni boshqarishda va daromadlarni ko‘paytirishda muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklar tomonidan amalga oshiriladigan qimmatli qog‘ozlar operatsiyalari ikki asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqishimiz mumkin investitsion va xizmat ko‘rsatish operatsiyalari:

1. Investitsion operatsiyalar-qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilish: Tijorat banklar ortiqcha likvid mablag‘larini xavfsiz va daromadli aktivlarga joylashtirish

maqsadida qimmatli qog‘ozlarni sotib olishadi. Masalan, davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar yoki boshqa kamriskli qimmatli qog‘ozlar.

2. Xizmat ko‘rsatish operasiyalari-konsalting xizmatlari: Tijorat banklar mijozlarga qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya qilish, risklarni baholash va boshqarish bo‘yicha maslahatlar beradi[3].

Qimmatli qog‘ozlar operasiyalarining bank faoliyatidagi o‘rni muhim hisoblanib,tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalari quyidagi jihatlar orqali bank faoliyatida muhim o‘rin tutadi:

- Likvidlikni boshqarish: Banklar qimmatli qog‘ozlar orqali o‘zlarining likvid aktivlarini ta’minlaydi. Masalan, qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini sotib olish orqali banklar zarur likvidlikni saqlab turishlari mumkin.
- Daromad manbai: Investitsion operasyalar bank uchun qo‘shimcha daromad manbai hisoblanadi. Dividendlar, foizlar yoki qimmatli qog‘ozlarni qayta sotishdan olinadigan foyda bankning moliyaviy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Risklarni boshqarish: Qimmatli qog‘ozlar orqali banklar o‘zlarining kredit portfeli risklarini muvozanatlashtirishi yoki bozor risklarini kamaytirishi mumkin. Masalan, derivativ qimmatli qog‘ozlardan foydalanish risklarni hedjlash imkonini beradi.
- Bozor barqarorligini ta’minlash: Tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faol ishtiroki bozor barqarorligini oshiradi va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi[4].

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operasiyalari bankning moliyaviy faoliyatida strategik ahamiyatga ega. Ushbu operasiyalar banklar uchun nafaqat daromad manbai, balki risklarni boshqarish va bozor likvidligini ta’minlash vositasi hisoblanadi. Shu sababli, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati nafaqat banklarning moliyaviy barqarorligini, balki iqtisodiyotning umumiy rivojlanishini ham ta’minlaydi.Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operasiyalari ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda va iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Banklar ushbu operasiyalar orqali likvidlikni boshqarish, qo‘shimcha daromad olish va risklarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlar bozorida faol ishtirok etish moliya bozorining barqarorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qimmatli qog‘ozlar operasiyalari nafaqat banklar uchun, balki butun iqtisodiyot uchun muhim strategik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov T.S. Moliya: amaliy jihatlar (2-qism). O‘quv qo‘llanma. Toshkent – «Nihol print» OK – 2022. 364 bet.
2. Hahn Christopher. Finanzierung von Start-up-Unternehmen. Praxisbuch für erfolgreiche Gründer: Finanzierung, Besteuerung, Investor Relations. Herausgeber.trustberg LLP. Berlin, Deutschland.Berlin im Sommer 2018.-304 S.
3. Ataniyozov J.H. – O‘zbekistonda integrasiyalashgan tuzilmalarni shakllantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil. 5-20 b.
4. Shoha’zamiy Sh.Sh. Tizimli moliya ijiniringi. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2012.-796 b.
5. Туйчиев, А. Г. (2019). Международные и региональные тенденции и проблемы финансирования инноваций и их трансферта в малый бизнес. Финансовый менеджмент, (5), 62-71.

MILLIY HISOBCHILIK TIZIMIDAGI ASOSIY INSTITUTSIONAL SEKTORLAR VA HISOBLAR

Abdaminova Pokiza
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti
3-bosqich talabasi
abdaminovapokizaxon@gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada “Milliy hisobchilik tizimi”, milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institutsional sektorlar va milliy hisobchilik tizimidagi hisoblar haqida so‘z yuritilgan hamda ularning turlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy hisobchilik tizimi, milliy pul birligi, milliy hisobchilik tizimidagi institutsional sektorlar, milliy hisobchilik tizimidagi asosiy hisoblar, davlat sektori, korxona (tadbirkorlik) sektori, Off-budjet fondlar (kassalar), xususiy (maxsus) kassalar, davlat byudjeti.

ОСНОВНЫЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ СЕКТОРА И СЧЕТА В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА

Аннотация: В этой статье рассматриваются "национальная система бухгалтерского учета", основные институциональные сектора в национальной системе бухгалтерского учета и счета в национальной системе бухгалтерского учета, а также их типы.